

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ATROF-MUHITNI KUZATISHGA O'RGATISHNING SAMARALI SHAKLLARI

Xolboyeva Gulnora Ulashovna

Talaba Do'liyyeva Xayrigul Namoz qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatishning samarali shakllari hamda ularda ekologik madaniyatni shakillantirishda tabiat va ilm-fan markazlarida tashkil etiladigan kuzatishlarni olib borish, ularga tarbiyachining tayyorgarligi, ularni tashkil etish yo'llari haqida so'z boradi.

АННОТАЦИЯ В статье рассматриваются эффективные формы обучения детей дошкольного возраста наблюдениям за окружающей средой и формирования у них экологической культуры, в том числе проведение наблюдений в природно-научных центрах, подготовка педагогов для них и способы их организации.

EFFECTIVE FORMS OF TEACHING PRESCHOOL CHILDREN TO MONITOR THE ENVIRONMENT

Xolboyeva Gulnora Ulashovna

Student Dollyeva Khairigul kizi

Termez State Pedagogical Instituti

ANNOTATION The article examines effective forms of teaching preschool children to observe the environment and to develop an ecological culture in them, including conducting observations in natural science centers, training teachers for them and ways of organizing them.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatishda bola uchun dastlabki yosh davrda osmonda uchib yurgan kapalak ham, katakdagi kapalak ham, rasmda tasvirlangan jonsiz kapalak tasviri hamma-hammasi bir xil tuyuladi. Bola ularni faqat «kapalak» sifatida qabul qiladi. Bunda hali bola «jonli», «jonsiz», «erkin», «ozod» yoki «tutqun» degan tushunchalarni anglamaydi. Lekin jonsiz kapalakka, jonli qushga nisbatan boshqacha qiziqish bilan qaraydi. Biroq buning sirini ham anglab yetmaydi. Shunda kattalar bolaga mana shu farqni, sirni

tushuntirib berishlari juda muhim. Shu orqali bola tirik tabiatga nisbatan boshqacha qiziqish bilan qarab, uning e'tibor va mehriga muhtojligini his qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatishga qo'yiladigan talablar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatish meyoriy xususidagi xujjatdir. Ushbu talablarda ko'rsatilgan meyor va talablar maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatish uchun o'lchovdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatish maqsadi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatni sevadigan, uni asrab avaylovchi, odobli, erkin fikrlovchi, milliy g'urur egasi, barkamol sog'lom avlodni tabiyalashdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatishning ta'limiy vazifalari:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki atrof-muhit haqidagi tushunchalarni shakllantirish;
- Bolalarning atrof-muhitni asrab-avaylashga unga mehr-muhabbatli, munosabatlarini, qiziqishlarini tarbiyalash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatishda ta'lim-tarbiya bo'yicha tuzilgan «Bolajon» dasturi asosida tabiatda o'zini tutish va atrof-muhitni muxofaza qilish malakasini shakllantirish va izchillikda o'stirib borishdan iborat bo'ladi.

Tabiatda har xil vositalar bo'lib turadi, shu tufayli ham ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Tabiatdagi barcha mavjudodlarning barchasidan turmushda foydalaniladi, hayotda keraksiz narsa yo'q, mavjud barcha narsalar hayotning yagona tizimida bo'lib, tizimning bittasi buzilsa, qolganlari ham shu yo'nalishda buzilib ketishi mumkin. Shuning uchun tabiatdagi hamma narsalarga ehtiyotkorlik bilan yondashishni bolalar ongiga bog'cha yoshidan boshlab singdirib borishni hayot taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhitni kuzatishga o'rgatishda unga yaqin, tanish bo'lgan joylar, o'z uyi, ko'chasi, bolalar bog'chasi, bog'cha hovlisidagi narsalar bilan tanishtirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatdan ta'lim-tarbiya o'zbek xalq ijodiyoti, sharq allomalari, yozuvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar, xikoyalar tasvirlangan tabiat manzaralari haqida ularga tushunchalar berib, maqollar yod oldiriladi.

Bu ishlarning hammasi bolalarni yoshlikdan boshlab tabiatni sevib asrashga, unga muhabbat hissini uyg'otishga yordam beradi.

Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarni tabiatdan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari quyidagilardir:

- Tut, terak, chinor, tol, qayrag'ochlar haqida;
- Tulki, bo'ri, ayiq, yo'lbars, ilonlar haqida;
- Tovuq, xo'roz, kurka, o'rdak, g'ozlar haqida;
- Ninachi, chumoli, chayon, qo'ng'iz, qurt, chigirtka, kapalak haqida;
- Erta gullaydigan o'tsimon, butasimon o'simliklar haqida;
- Qurbaqa, asalari, cho'lbaqa haqida;
- Jonli va jonsiz tabiat haqida;
- Mehnat qurollari haqida;
- Tibbiy materiallar bilan ishlash haqida;
- Dorivor o'simliklar bilan va ularni yig'ish haqida;
- «Qizil kitob»ga kiritilgan noyob hayvon o'simliklar haqida.

6-7 bolalar tabiat haqida quyidagi ko'nikmalarni egallashi kerak:

- Ozoda va saranjomlikni;
- Atrof-muhitdagi turli-tuman narsalar bilan qilish madaniyati;
- Uy hayvonlarini parvarishlashi;
- Tabiatni muhofaza qilishning oddiy elementlari;
- Tut, chinor, terak, tollarni o'zaro farqlay olishlari;
- Mevali va manzarali daraxtlarni farqlay olishlari;
- Yovvoyi hayvonlarni uy jonivorlaridan farqlay olish va ular bilan muomala qilish madaniyati;

- Tabiiy va sun'iy o'simliklar bilan tanishtirish;
- O'simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan g'amxo'rlik, raxm shavqatda bo'lish madaniyati va bilimni egallashlari lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ba'zi hayvonlarni parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishga unga mehr-muhabbat uyg'otishga yordam beradi.

Tabiat burchagida yashaydigan hayvonlarni bolalar har kuni ko'rib turishadi. Yana ularni istirohat bog'lari, bog'cha yer maydonchalariga, parklarga olib borib turish maqsadida muvaffaqiyatliligini tarbiyachi-pedagoglar unutmasliklari, bolalardagi hayvonlar olami bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalash zarurligini maqsad, vazifa deb bilishlari zarur. Bu tarbiyachining ishini yengillashtiradi; uning rahbarligi ostida bolalar tirik mavjudotlarni muntazam kuzatib borish bilan birga ularni parvarish qilib borish jarayonida bolalar hayvonlar olamining turli-tumanligi to'g'risida, hayvonlar qay tariqa o'sib, rivojlanib borish, ularga qanday sharoitlar yaratib berish zarurligi to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Tarbiyachi bolalarni qiyosiy analiz, ya'ni tahlil qilishga, hayvonlarni bir-biriga solishtirib ko'rib, ular orasidagi o'xshashliklar va farqlarni topishga o'rgatib boradi, hayvonlarning tashqi ko'rinishidagi, hatti-harakatdagi qiziq xususiyatlarni payqab bilib olishga yordam beradi.

Hayvonlarni muntazam ravishda parvarish qilib, ularga bilim berib borish jarayonida tarbiyachi bolalarda ma'lum atrof-muhit xaqidagi bilimlarni shakllantirib, ularni tabiat burchagidagi hayvonlarga e'tibor bilan qarashga, tirik mavjudotlar to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'rgatib boradi va shu tariqa bolalarda tabiatga qiziqishni, natijaga erishishda ekologik madaniyat hissini mustahkamlaydi. Tabiat burchagi uchun mo'ljallanadigan hayvonlar «Bolajon» tayanch dasturiga muvofiq tanlanadi. Tabiat burchagiga bolalar muassasasi qaysi iqlim mintaqasida joylashgan bo'lsa, birinchi navbatda shu iqlim mintaqasiga xos bo'lgan hayvonlarni joylashtirilishi kerak. Katta guruh tabiat burchaklari boshqa iqlim zonalaridan keltirilgan hayvonlar bilan to'ldirib boriladi. Tabiat burchagida saqlanadigan hayvonlarning hammasida ularning sinf, turkum belgilari yaqqol

ifodalanib turadigan bo'lishi zarur, masalan, kapalaklar tana tuzilishi, ularning turlari, shuningdek foydali, zararkunanda hayvonlarni bir-biridan farqi, ahamiyatini bilishlari kerak.

Qaysi guruhning burchagi uchun tirik obyektlar tanlanayotgan bo'lsa, o'sha guruhdagi bolalarning yosh xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim.

Bolalar bemaolol parvarish qila oladigan bo'lishlari uchun kichik va o'rta guruh tabiat burchaklariga eng kamtalab hosharatlar qo'yiladi. Katta, maktabga tayyorlov guruhlarida yashash sharoitlariga bir muncha talabchan hayvonlar bo'lishi, bularning soni ko'proq bo'lishi zarur. Tabiat burchagining barcha hayvonlari biologik xususiyatlari mos holda va yashash sharoitlariga qanday talablar qo'yishga qarab joylashtiriladi. Boshqa turdagi hayvonlarni xonasining bir joyiga to'p qilib qo'yish yaramaydi, bunday sharoitda hayvonlarni kuzatish va ularni parvarish qilib borish, zarur bo'lganda ulardan birortasini boshqalari orasidan ajratib olish bolalarga qiyin bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishda ana shu narsalarga e'tibor berish juda ham zurur estetik talablarni ham hisobga olish kerak: har xil turdagi hayvonlarni shinam qilib joylashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE EDUCATORS FOR THE FORMATION OF ECOLOGICAL LITERACY OF CHILDREN.G.U Kholboyeva.Theoretical & Applied Science, 355-359.

2. Содержание и методика проведения физкультурных досугов в дошкольных учреждениях. Г.У Холбоева. Вестник современной науки, 131-133.

3. Физическое воспитание детей дошкольного возраста. Г.У Холбоева. Евразийский научный журнал, 462-464.

4. Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста Г.У Холбоева, РЖ Окбоева. Евразийский научный журнал, 250-251